

KORREKSION - LOGOPEDIK JARAYONDA OVOZ VA NAFASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN LOGOPEDIK O'YINLARNI OLIB BORILISHI

Lazizbek Xayitov

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Ahmedova Gavhar Ma'rufjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

Rinolaliya (grekcha so'zdan olingan bo'lib, rhinos – burun, lalia – nutq) nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir. Rinolaliyani o'rganish tarixi juda uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Muammoni o'rganishda shifokorlar, psixologlar, defektologlar o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar.

Turli xil nutq buzilishlarga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyati katta ahamiyatiga ega, hamda ular shaxs va intellektining har tomonlama rivojlanishiga zarur shart-sharoit yaratadi. Biroq, tovush talaffuzidagi kamchiliklar, lug'at boyligining chegaralanganligi, nutqning grammatik tuzilishining buzilishi, shuningdek, nutq tempi - ritmi va ravonligini buzilishlari – buning barchasi bolalar o'yin faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi, o'yinda o'ziga xos ma'lum bir xususiyatlarni vujudga keltiradi. O'yin jarayonida bolaning axloqiy sifatleri tarbiyalanadi, bular: dadillik, qat'iyatlilik, adolatlilik (vijdonlilik), hayrixohlikdir. Aksariyat o'yinlar jamoaviy harakterga ega bo'lganligi sababli, ular jamoada muloqotga kirishish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bolani o'yinchoqlarga va o'yin materiallarga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatini, dastlabki mehnat malakalarini shakllantirishda ham o'yin faoliyatidan foydalanish lozim.

Nafas olish mashqlari xususan og'izni yumib turib burun orqali nafas olish va nafas chiqarishni har kuni bir necha minutdan 3-4 hafta davomida mashq qilishni taqozo qiladi.

1. “M”, “N” tovushlarini chuzib talaffuz etib, burun bo'shlig'ining rezonatorlik faoliyatini kuchaytirib borish. Rezonatorlik faoliyatini burun teshiklari oldida qo'lni tutib turish yoki unga bog'langan paxta bo'lagini osiltirib turish yo'li bilan tekshirsa bo'ladi.

2. Kichik yoshdagi bolalar bilan boshqacharoq qilib, ya'ni o'yin tariqasida o'tkazish mumkin. Bunda bolalar qo'l kaftlarini peshona bilan yuqori lab oralig'iga qo'yib, burundan chiqayotgan havoni sezib turishlari kerak. Havo chiqishi ravon-ravonmasligini bilish uchun bolalar kaftini dam o'zlari, dam tarbiyachi, dam o'rtoqlarining yuziga qo'yib ko'rib havo oqimini taqqoslashlari mumkin. Shu maqsadda “Sigir qanday ma'raydi?” o'yinidan foydalansa ham bo'ladi.

3. “M” tovushini unlilar, masalan, “a”, “o”, “u” bilan birga ma-mo-mu bo'g'inlari tariqasida talaffuz etish, bunda “M” tovushi cho'zib talaffuz ettiriladi. Ayni vaqtda unlilar ham dastlab noaniq burun bilan talaffuz qilinadi. Buni rostdash uchun ularni burun undoshlaridan ajratib, alohida talaffuz ettiriladi, keyin unlilar birikmasi: au-ao-ai xokazolar, undan so'ng unlilarning jarangli undoshlar bilan birikmasi (ba, bo, bu) va oxirida m-a-ma va hokazolar birikmasi talaffuzi mashqiga o'tiladi. Ana shunday mashqlar yordamida “M” tovushi talaffuzi yo'lga olinsa, “N” tovushi talaffuzini uzlashtirish birmuncha oson kechadi.

“M”, “N” tovushi, shu tovushlar ishtirokida bo’g’inlar to’la o’zlashtirilgandan so’ng, butun-butun so’zlar va undan nihoyat jumlar talaffuziga o’tiladi.

Ochiq rinolaliyani bartaraf etish. Ochiq rinolaliyani bartaraf etish uchun jarrohlik, fizioterapiya va logopediya davolash usullari va vositalaridan foydalaniladi. Yuqori lab kemptigini yo’qotish uchun hayotning birinchi oylaridayoq bolaning kemptik joyi operatsiya yo’li bilan tikiladi. Yumshoq tanglayni tikish operatsiyalarini rus jarroh Pirogov 1844-yildayoq o’tkaza boshlagandi. Uning shogirdi N.Voronsovskiy esa operatsiyaning o’zi bilangina rinolaliyani bartaraf etib bo’lmasligini, operatsiyadan so’ng maxsus nutq mashg’ulotlari o’tkazish zarurligini ko’rsatib o’tdi. Yumshoq tanglay operatsiyalari xususida hozir katta yutuqlar qo’lga kiritilgan. Plastik operatsiyalar ishlab chiqilib, kemptik joyni tikib butlash yoki protez (obturator) qo’yish qo’llaniladi. Lekin operatsiya qaysi yoshda o’tkazilsa yaxshiroq natija beradi, degan masala hali uzil-kesil hal etilgani yo’q. Ba’zi olimlar operatsiyasini bola tilga kirguncha o’tkazishni ma’qul deyishsa, ba’zilari bola kattaroq bo’lib, nutqi to’la takomillashib bo’lganidan keyin, taxminan 9 yoshlarda operatsiya o’tkazish vaqtini rinolalikning umumiy holatiga, kemptik tabiatiga va hajmiga qarab belgilaydilar.

Professor M.Zeeman, A.A.Ximberglarning fikricha, operatsiya 4-5 yoshlarda qilinadigan ham yordam so’rab kelishadi. Shunda logoped qanday yordam kursatish haqida to’g’ri maslahat bera olishi, operatsiyadan oldin qanday tayyorgarlik ishlari olib borishi, operatsiyadan sung nutqni joyga keltirish uchun qanday choralar ko’rish kerakligini bilishi kerak, chunki operatsiyadan keyin rinolalik nutqi noaniqligicha qolaveradigan bo’lganidan, o’z vaqtida, to’g’ri uyushtirilgan logopedik yordam berilsagina nutqidagi kamchiliklar yo’qolib ketadi. Operatsiyadan oldingi tayyorgarlik tariqasida olib boriladigan logopedik ishlar quyidagi bo’limlardan iborat:

- 1) burun va og’iz orqali nafas chiqarishni o’rgatish;
- 2) tovushlar talaffuzini yo’lga qo’yish;
- 3) tovushlar avtomatizasiyasi.

Operatsiyasidan so’nggi rinolalikning artikulyatsion apparati operatsiyasidan oldingi davrdagi artikulyatsion apparatidan farq qiladi. Chunki kemptikni tikish uchun solingan choklar o’rnida chandiqlar hosil bo’lib, yumshoq tanglay harakatchanligini bir qadar cheklaydi – yumshoq tanglayni passiv holatga tushirib qo’yadi. Shuning uchun operatsiyadan so’nggi ishga endi yumshoq tanglayni aktivlashtirish mashqlari ham kiritiladi. Operatsiyadan so’nggi logopedik ish quyidagi bo’limlardan iborat:

- 1) yumshoq tanglay va artikulyatsion apparat gimnastikalari;
- 2) nutq paytida to’g’ri nafas olishga o’rgatish;
- 3) tovushlar talaffuzini yo’lga qo’yish;
- 4) tovushlar avtomatizasiyasi

Har ikki davrda ham logoped olib boradigan qo’shimcha ishlar psixoterapiya, eshituv diqqatini rivojlantirish va muskullardagi ortiqcha harakatlarni bartaraf etishdan iborat. Yumshoq tanglay harakatini aktivlashtirish uchun birinchi galda massaj usulidan foydalaniladi. Buning uchun tanglay oldingi qismidan orqa qismiga va o’ng tomonidan chap tomoniga qarab bosh yoki kursatkich barmoq bilan silab, uqalab chiqiladi, ayni vaqtda choklar o’rnidagi chandiqlar asta-sekin bosib-bosib qo’yiladi. Massaj 3-5 kun kuniga 3-4

marta o'tkazib turiladi. Massajni avval logoped, keyinchalik borib, rinolalikning o'zi o'tkazadi. Massaj natijasida to'qimalarda qon aylanish yaxshilanib, yumshoq tanglay harakatchanligi ancha o'ziga kelib qoladi. Massaj bilan bir qatorda, to'g'ri nafas olishni yo'lga qo'yish uchun nafas olish mashqlari qo'llaniladi. Bunda quyidagi mashqlar qo'llaniladi:

- 1) burun bilan nafas olish- burundan nafas chiqarish;
- 2) og'iz bilan nafas olish – og'zidan nafas chiqarish;
- 3) og'zidan nafas olish – burundan nafas chiqarish.

Kishi so'zlaganda havo oqimi yo og'zidan, yo burundan to'g'ri kirib-chiqib turishini ta'minlaydigan yana bir qancha qo'shimcha vositalar ham bor. Masalan, nafas chiqarish og'iz yoki burunni berkitib turish, yonib turgan gugurtni dam og'izdan chiqayotgan havo bilan, dam burundan chiqayotgan havo bilan o'chirish, paxta bo'lakchasini og'izdan yoki burundan chiqayotgan havo yordamida uchirish va boshqalar shular jumlasidandir. To'g'ri nafas olish va chiqarish malakasi mustahkamlanganidan so'ng tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yish ustida ish olib boriladi. Bunda A.G.Ippolitova tovushlar talaffuzini quyidagi tartibda o'zgartirib borish maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaydi: a) unlilar (a,e,o,u,i,o'); b) undosh jarangsiz sirgaluvchilar (f-s-sh-x); v) jarangsiz portlovchilar (p-t-k); g) jarangli sirg'aluvchilar (v-z-j); d) jarangli portilovchilar (b-d-g); e) affrikatlar (s-ch) sonorlar (l-r-m-n).

Hozirda tovushlar talaffuzini yo'lga qo'yishning quyidagi tartibiga amal qilinganida yaxshiroq natijalarga erishmoqda. Avvalo "t" tovushi ustida ish olib boriladi, chunki "t" tovushidan k-ch-sh-s-s tovushlarini hosil qilish mumkin. "T" tovushi bo'lmasa, uni "d" tovushidan hosil qilinadi. Agar "d" tovushi bo'lmasa, uni "n" tovushidan hosil qilinadi, burunni yopib turib "n" tovushini talaffuz etilsa, "d" tovushi hosil bo'ladi. Bunda har bir tovush talaffuzini o'zlashtirilganidan so'ng, bu tovushni avval ochiq, keyin yopiq bo'g'inlarda, undan keyin so'zlar va gaplarda talaffuz etishga o'tiladi. Eshituv diqqatini va fonematik o'quvni o'stirish uchun logoped o'zi talaffuz qilgan bo'g'inlarni aytib ko'rishni iltimos qiladi. Bir tovush bilan farq qiluvchi so'zlar ma'nosi so'raladi, manqalanib va manqalanmasdan aytilgan jummalarni eshitib, ma'nosini aytib berish so'raladi va hokazo.

Rinolaliyani bartaraf etishda nafas gimnastikasi kattagina o'rin tutadi. Bu gimnastika burundan nafas olib, burundan chiqarish, burundan nafas olib, og'izdan chiqarish, og'izdan nafas olib, og'izdan chiqarish mashqlaridan iborat bo'ladi. Shunday qilib, hozirgi kunda, rinolaliyani bartaraf etishda logopedik amaliyotda turli xil metodikalar ishlatilmoqda. Biz A.G.Ippolitova, N.I.Ermakova, G.V.Chirkinalarning mualliflikda ishlab chiqqan rinolaliyani bartaraf etish sistemalaridan faqatgina ayrim, umumiy bo'lgan ish usullari, yo'llarini ko'rsatib o'tdik xolos.

Rinolaliya kabi murakkab nutqiy nuqson faqatgina to'g'ri tashkil etilgan kompleks chora-tadbirlar ta'sirida, maxsus sharoitda, mutaxassis logoped-shifokorlar tomonidan bartaraf etishilishi mumkin. Maktabgacha tarbiya muassasalari, boshlang'ch sinflarda tarbiyachi va o'qituvchilar rinolaliya kabi nutqiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarni vaqtliroq mutaxassislarga maslahat uchun yuborishlari darkor. Bunday bolalar maxsus nutqiy bog'chalarda, sinflarda ta'lim olsalar, ularga tegishli yordam o'z vaqtida va to'g'ri tashkil etilsa, ular keyinchalik O'qishni muvaffaqiyatli davom ettiradilar.

Quyida biz, rinolaliya nutq nuqsonini bartaraf etishda ovoz va nafasni rivojlantirishda foydalanish mumkin bo'lgan o'yinlar guruhni keltirib o'tamiz.

“Kapalaklar uchyapti” o'yini

O'yinning maqsadi: To'g'ri, uzluksiz havo oqimini xosil qilishga erishish

O'yinning borishi: Bolalar stulchalarga o'tirishadi. Logoped bolalarga

- Bolalar qaranglar-a, qanday chiroyli kapalaklar: ko'k, sariq, qizil! Ular xuddi jonli kapalaklarga o'xshaydi. Ko'raylikchi, ular ucha oladilarmi?

Kapalaklarni puflaydi.

- Qaranglar, uchib ketishdi. Qani sizlar ham puflab ko'ringlarchi. Kimniki uzoqqa uchar ekan?

Logoped har bir kapalakning qarshisiga bittadan bolani turgazib qo'yadi, bolalar kapalakka puflaydilar.

Metodik ko'rsatma: o'yinni bir necha marotaba takrorlaydi. Bunda bolalarning to'g'ri turishiga, nafas olganlarida yelkalarining ko'tarilmasligiga ahamiyat berib borish kerak. Bolalar bir nafas chiqarishda, havo olmasdan turib, biron narsani puflashlari kerak. Lablar bir oz oldinga chiqqan bo'lishi kerak. Har bir bola biror narsani 10 soniyadan (orasida tanaffus qilish bilan) ortiq puflamasligi kerak. Davomli tanaffussiz 10 soniyadan ortiq puflash bosh aylanishini keltirib chiqarishi mumkin.

“Kimning qushchasi uzoqqa uchadi?” o'yini

O'yinning borishi: Ikkita stulchaning qirralariga qushchalar qo'yiladi, stulchalar bir-biridan 30 sm uzoqlikda turishi kerak. 4 bola chaqirilib, har bir stulchaning qirrasida turgan qushchalarning to'g'risiga turgazib qo'yiladi.

- Qushchalar uchishdi!, - deyilgach, bolalar shakllarni puflashadi. Boshqalari esa kimning qushchasi uzoqqa uchganligini ko'rsatadilar.

Metodik ko'rsatma: Bolalar yupqa qogozdan tayyorlangan qushchalarni puflaganlarida lunjlari shishmasligi kerak. Qirqib ipga osilgan shakllarni bir nafas chiqarishda xarakatlantirish kerak. Logoped bolalarga qushchani puflaganda ketma-ket (bo'lib-bo'lib) puflash mumkin emasligini aytadi va o'zi qushchani puflab ko'rsatadi.

"Tovuqlar fermasi " o'yini

O'yinning borishi: Logoped bolalarga o'yinchoqlarni ko'rsatib, ularning ovozlari ketma-ketlik bilan 3-4 marta taqlid qilinadi. (qo-qo-qo, qu-qu-qu, g'oq-g'oq-g'oq, g'ak-g'ak-g'ak, chi-chi-chi) So'ngra o'yinchoqlarni stol ustidan olib qo'yadi va bolalarga shunday deydi:

- Biz sizlar bilan tovuqlar fermasiga bordik. Ketayotsak, oldimizdan tovuq chiqib qoldi. (“tovuq” o'yinchog'ini ko'rsatadi) U biz bilan qanday salomlashadi? (Bolalar: qo-qo-qo)

-biz yo'limizni davom etdik. Qarshimizda g'oz chiqdi (“g'oz” o'yinchog'ini ko'rsatadi) U qanday salomlashadi? (Bolalar: g'oq-g'oq-g'oq)

Shu tariqa logoped xo'roz, jo'ja o'yinchoqlarini ko'rsatadi. Bolalar esa unga taaluqli bo'lgan tovushni talaffuz etadilar

Metodik ko'rsatma: Avval bolalar tovushga taqlidni xor bo'lib talaffuz etadilar, so'ngra 3-4 boladan yakkama-yakka so'raladi. Bolalar (qo-qo-qo, qu-qu-qu, g'oq-g'oq-g'oq, g'aq-

g'aq-g'aq, chi-chi-chi) tovushga taqlid qilishni bir nafas chiqarishda talaffuz etishlari lozim. Ba'zi bolalar 2-3 tovushga, boshqalari esa 3-4 tovushga taqlid qilishlari mumkin

Rinolaliya nutq nuqsoniga ega bolalarning psixik rivojlanishiga o'yin nutqning shakllanishiga spesifik ta'sirini ko'rsatadi. Bolalarni har doim bir-biri bilan muloqot qilishga va o'z faoliyatini bir-biri bilan mulohaza qilishga o'rgatish kerak. Bu tashabbuskorlik faol nutq malakalarini mustahkamlashga, og'zaki nutqni mukamallashtirishga, tilning grammatik qurilishini shakllantirishga, ovoz va nutqiy nafasning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarini kafolatlari to'g'risida" gi Qonun. Toshkent-2007y.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. Toshkent-2007y.
3. Mo'minova L.R., Amirsaidova SH.M. va boshqalar "Maxsus psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti. Toshkent – 2013 yil
4. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. Toshkent-1991y.
5. Raxmonova V.S. Maxsus pedagogika. Toshkent-2006y.
6. Axmedova Z.M., Ayupova M.YU., Xamidova M.P. "Logopedik o'yin" Toshkent – 2013
7. Xayitov, L. R., & Ahmedova, G. (2023). Rinolalik bolalar ovoz va nafasini logopedik oyinlar orqali rivojlantirish. *Science Promotion*, 1(2), 160-163.
8. Xayitov, L. (2023). Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish idrokini rivojlantirish muammosini maxsus pedagogikada o'rgananlik holati. *Innovative developments and research in education*, 2(18), 135-139.
9. Xayitov, L. (2023). ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING ESHITISH IDROKI XUSUSIYATLARI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(18), 140-143.
10. Xayitov, L. R., & To'lqinova, O. (2023). PSIXIK RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IZCHIL NUTQ KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. *Interpretation and researches*, 1(1).
11. Xayitov, L. R., & Umarova, K. (2023). PSIXIK RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING DIALOGIK NUTQINI O'YIN FAOLIYATIDA RIVOJLANTIRISH. *Interpretation and researches*, 1(1).
12. Khayitov, L. R. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. *Science Promotion*, 1(1), 98-102.
13. Khayitov, L. R., & Egamberdieva, F. (2023). VOCATIONAL GUIDANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF CHILDREN WITH INTELLECTUAL DEVELOPMENTAL DISABILITIES. *Science Promotion*, 1(1), 23-27.
14. Khayitov, L. R., & Abdusalomova, F. (2023). WAYS TO STUDY AND ELIMINATE THE INFLUENCE OF SPEECH DEFECTS ON THE MENTAL DEVELOPMENT OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. *Science Promotion*, 1(1), 6-10.

15. Xayitov, L. R., & Ahmedova, G. (2023). RINOLALIK BOLALAR OVOZ VA NAFASINI LOGOPEDIK OYINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. *Science Promotion*, 1(2), 160-163.
16. Khaitov, L. (2023). METHODS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-METHODICAL TRAINING OF DEFECTOLOGISTS WORKING WITH BOAS WITH HEARING PROBLEMS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(12), 155-161.
17. Khaitov, L. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL-METHODICAL TRAINING OF DEFECTOLOGISTS WORKING WITH CHILDREN WITH HEARING DEFECTS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(12), 162-167.
18. Lazizbek, X., & Shaxlo, A. (2023, December). NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNI BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 19, pp. 78-82).
19. Rustam, K. L., & Khavodullayev, M. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 547-552.
20. Xaitov, L. A. (2021, December). THE ISSUE OF SUSTENANCE AND PROFESSION IN HAKIM TERMIZI'S WORK "BAYANUL KASB"("DESCRIPTION OF THE PROFESSION"). In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 67-69).
21. Khayitov, L. R., & Turgunova, S. (2023). CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENT IN PRESCHOOL AGE SPEECH DEVELOPMENT. *Science Promotion*, 1(1), 88-92.
22. Курбаниязов, З., Бабажанов, А., Давлатов, С., Гоziбеков, Ж., Хайитов, Л., Даминов, Ф., & Казаков, М. (2015). Анализ результатов хирургического лечения больных узловыми образованиями щитовидной железы. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (1 (82)), 45-48.
23. Rustam, K. L., & Khavodullayev, M. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF FUTURE DEFECTOLOGISTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 547-552.
24. Khayitov, L. R., & Komilov, O. (2023). TECHNOLOGIES FOR GROWING SPEECH OF MENTALLY RETARDED CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. *Science Promotion*, 1(1), 32-35.
25. Abdullaeva, B., Khaitov, L., & Aziza, M. (2020). Development of social pedagogical competence of future defectologists. *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6), 1139-1142.
26. Хайитов, Л. Р., & Уктамова, Ш. Г. (2016). Осознанный выбор школьников с ограниченными умственными возможностями, а также влияние семейной среды, социальной-психологии. *Евразийский Союз Ученых*, (6-3 (27)), 50-53.

27. Khaitov, L. (2020). Essence and structure of socio-pedagogical competence of the future logopeda teacher. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8.